

5-SINF TARBIYA. ChSB - 1. II Variant

Sana: _____ **Sinf** _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Vatanning porloq kelajagi uchun xizmat qilayotgan yurtdoshlarimizning tashabbuslarida qanday tuyg'uni ko'rishimiz mumkin?(B-2 ball)

A) Maqtanish B) Manmanlik C) O'zga yurtga muhabbat D) Vatanparvarlik

2. Rejalashtirilgan tadbirlarni bajaradigan va o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qiladigan insonlarda nimani ko'rishimiz mumkin?(B-2 ball)

A) Mas'uliyatni B) Dangasalikni C) Maqtanchoqlikni D) Manmanlikni

3. Huquq deganda nima tushuniladi?(B-2ball)

A) Davlat tomonidan berilgan, biz foydalanishimiz mumkin bo'lgan imkoniyat

B) Jamiyat tomonidan berilgan, bajarishi shart bo'lgan ishlar degani

C) Ota-onalar tomonidan majburiyat qilib yuklangan harakat

D) Maktab tomonidan berilgan ishtiyoq

4. Imkoniyati cheklangan insonlar ham oilada va jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladilar. Bunda ularga qanday ta'lim yordam beradi?(B-2ball)

A) An'anaviy ta'lim B) Inklyuziv ta'lim

C) Eskicha ta'lim D) Chet davlat ta'limi

5. Yakunlangan fikr hosil qilish uchun quyidagi iboralarining qismlarini birlashtiring.(Q – 2,8 ball)

1	Vatanimning kelajagi-	a) o'qiyman
2	Vatanparvarlik avvalo-	b) mening kelajagim
3	Men vatanim bilan-	c) faxrlanaman
		d) oilada shakllanadi
		e) uyalaman

A) 1-b, 2-d, 3-c

B) 1-e, 2-d, 3-a

C) 1-c, 2-b, 3-a

D) 1-d, 2-e, 3-c

6. Quyidagilardan bolaning huquqlarini toping. (Q-2,8 ball)

1) harbiy xizmatga borish 2) ta'lim olish 3) tibbiy xizmatdan foydalanish 4) oilada tarbiyalanish 5) tarixiy obidalarni hurmat qilish

A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5

7. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga munosabatda bo'lishga majburlar. Ushbu qoidadagi tushirib qoldirilgan jumlaning o'rniga qo'ying. (Q – 2,8 ball)

A) ehtiyotkorona

B) qo'pol

C) yordam qilishga

D) murosa qilishga

8. Qat'iyatsizlikni yengish uchun muammoning yechimini aniqlang. (Q-2,8 ball)

№	Xohish yo‘q	Xohish bor
1	Men bugun horg‘inman	-
2	Bugun mening asablarim tarang	-
3	Bugun mening boshim og‘riyapti	-
4	Men bugun yalqovman.	men bugun juda ishchanman
5	Bu ishni keyin qilaman.	bugun bu ishni albatta qilaman

- A) 1-men bugun tetikman, 2- bugun men xotirjamman, 3- mening sog‘ligim yaxshi
 B) 1-men bugun tayyorman, 2-mening sog‘ligim yaxshi, 3-bu ishni bugun bajaraman
 C) 1-men bugun jahldorman, 2-bu ishni bugun bajarsammi, 3-men bugun tayyorman
 D) 1-men bu ishni bugun bajaraman, 2- bugun tayyorman, 3-mening sog‘ligim yaxshi

9. Azizbekda har doim u yoki bu narsa bilan shug‘ullanish istagi bo‘ladi. Shuning uchun ham sinfdoshlari unga havas bilan qaraydilar. Azizbekdagi ushbu istakni nomini aniqlang. (Q-2,8 ball)

- A) Qaysarlik B) Ayyorlik C) Motivatsiya D) Manmanlik

10. Umida sinfdoshlari va dugonalari bilan mamnunlik bilan muloqot qiladi, ulardan ilhomlanadi. Natijada u she‘rlar va hikoyalar yoza boshladi. Umidada qanday tuyg‘u ko‘proq shakllangan? (Q-2,8 ball)

- A) Ijobiy tuyg‘u B) Salbiy tuyg‘u C) Betaraf tuyg‘u D) Noaniq tuyg‘u

11. Odamlar boshqa insonlarga mehrini va yordamini qanday ko‘rsatishlari mumkinligini toping. (Q-2,8 ball)

- 1) kerak paytda yordam berishlari orqali;
 2) ezgu ishlarni bajarishlari orqali;
 3) hammaga sirlarini aytishi orqali;
 4) hech kimga ishonmasligi orqali;
 5) narsalarini ehtiyot qilish orqali;
 6) yaqinlari haqida qayg‘urishlari orqali.
 A) 1, 2, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 6 D) 2, 3, 5

12. Said a kutgan natijasiga erisha olmasa tezda tushkunlikka tushib qoladi. Shunday vaziyatlarda u tezda maqsadidan ham voz kechadi. Said a aslida qanday harakat qilishi kerak? (Q-2,8 ball)

- A) Maqsadga erishish yo‘llarini izlashi kerak
 B) Mug‘ombirlik yo‘llarini o‘rganishi kerak
 C) Hamma narsani o‘z holiga tashlab qo‘yish kerak
 D) Yomonlik bilan bo‘lsa ham intilishi kerak

13. Mahallada o‘rta yoshli inson yashaydi. Ko‘zlari yaxshi ko‘rmaganligi uchun hamma uni ko‘r deb masxara qilishadi. Ayniqsa yosh bolalar uni shunday ataganda u kishi xo‘rsinib qo‘yadi. Ushbu vaziyatda u insonga qanday baho berish mumkin? (Q-2,8 ball)

- A) Juda yomon inson deb
- B) Har bir inson hurmatga loyiq deb
- C) Aqlli bolalar deb
- D) Jahldor odam deb

14. Umida bahorda dadasi bilan gullarni ekdi, daraxtlarni oqladi va parvarishladi. Umida ushbu harakati orqali tabiatga qanday hissa qo'shgan? (Q-2,8 ball)

- A) Atrof-muhitni yaxshilash, tabiatni asrab avaylash
- B) Tabiatga ziyon yetkazish, nobud qilish
- C) Jonivorlarga ozor yetkazish
- D) Tabiatga salbiy hissa qo'shish

15. Insonlar tomonida daryo, dengiz va okeanlarga har xil chiqindilarni oqizishi natijasida kelajakda qanday muammolarga sabab bo'lishi mumkinligini aniqlang. (M-4 ball)

- A) Sayyorada odamlarni ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin
- B) Toza ichimlik suvining tanqisligi, hayvonlarning qirilib ketishi
- C) Yangi yerlarni o'zlashtirishiga sabab bo'lishi mumkin
- D) Ilm fan yutuqlariga olib kelishi mumkin